

MAHKAMOV Anvarjon Abdujabborovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrasini dotsenti, PhD

AXMADALIYEV Oxunjon Olimjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrasini magistranti

O'ZBEKISTONDAGI ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINING INTEGRALLASHGAN PLATFORMASINI ISHLAB CHIQUISH VA XAFSIZLIGINI TA'MINLASH

РАЗРАБОТКА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ ИНТЕГРИРОВАННОЙ ПЛАТФОРМЫ ЦЕНТРА ИСЛАМСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

DEVELOPMENT AND SECURITY OF THE INTEGRATED PLATFORM OF THE CENTER OF ISLAMIC CIVILIZATION IN UZBEKISTAN

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining integrallashgan platformasini ishlab chiqish hamda uning xavfsizligini ta'minlash tizimi keltirilgan. Maqola yordamida foydalanuvchilar hozirgi kundagi zamonaviy va soddalashtirilgan ko'rinishda rivojlanib borayotgan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining integrallashgan platformasida ishlash ko'nikmasini hosil qiladilar.

Kalit so'zlar: Islom sivilizatsiyasi markazi, integrallashgan platforma, axborot xavfsizligi, axborot texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье представлена разработка интегрированной платформы и системы обеспечения безопасности развивающегося в настоящее время центра исламской цивилизации в Узбекистане. С помощью статьи пользователи формируют навыки работы на интегрированной платформе центра исламской цивилизации в

Узбекистане, которая сегодня развивается в современном и упрощенном виде.

Ключевые слова: Центр исламской цивилизации, интегрированная платформа, информационная безопасность, информационные технологии.

Annotation: This article presents the development of the integrated platform of the center of Islamic civilization in Uzbekistan, which is currently developing, and the system for ensuring its security. With the help of the article, users will learn to work on the integrated platform of the center of Islamic civilization in Uzbekistan, which is developing today in a modern and simplified form.

Keywords: Center of Islamic Civilization, integrated platform, information security, information technologies.

KIRISH


Ayni vaqtga kelib O'zbekistonda islom dini qadriyatlariga e'tibor tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan buyuk allomalarimiz va ularning ilmiy meroslariga alohida ahamiyat ko'rsatilib, yoshlarni ularning pandu nasihatlarini, ilm-ma'rifat, bag'rikenglik ruhida tarbiya qilishga katta urg'u berilmoqda. Bir tomondan, dunyo globallashuv tomon odimlayotgan bir paytda, uzoq masofalar tobora yaqinlashmoqda, boshqa tomondan esa, fan va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, inson hayoti shiddat bilan o'zgarmiqda. Biroq iqtisodiy va texnologik rivojlanish insoniyat oldiga yangi muammolar, yangi masalalarni ham qo'yimoqda.

Ma'lumki, ilm va ma'rifat dini bo'lgan islom dini Markaziy Osiyoda jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan allomalarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' allomalar g'oyat boy merosini asrab-avaylash, ilmiy tadqiq qilish va kelajak avlodga yetkazib berish hamda islom dinining mohiyati bag'rikenglik va ma'rifat ta'limoti ekanligini yangi texnologiyalardan foydalangan holda integrallashgan platforma orqali keng jamoatchilikka yetkazish ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 23 iyundagi qarori bilan Toshkentda tashkil etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi [1, 2].

ASOSIY QISM


O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining integrallashgan platformasi davlat tashkilotlari platformalariga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib u bosh sahifa, markaz bo'limlari ish faoliyati haqida umumiy ma'lumotlar, muzey va elektron kutubxona qismlaridan tashkil topgan.

Ushbu platforma bosh sahifasi quyidagi ko'rinishga ega.




1-rasm. Platforma bosh sahifasi

Platformaning **markaz haqida** bo'limi quyidagi ko'rinishga ega.




2-rasm. Markaz haqida bo'limining umumiy ko'rinishi

Islom sivilizatsiyasi markazi platformasida Muzey bo'limida islom dini bilan bog'liq merosimiz zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etiladi. Muzey ko'rgazmasini masofadan ko'rish imkoniyati yaratiladi. Uni quyidagi 3-rasmda ham ko'rishimiz mumkin.




3-rasm. Muzey virtual sayohat sahifasining ko'rinishi

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Muzeyida ko'rgazmalar ham tashkil etiladi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida onlayn bilet olish imkoni ham mavjud.




4-rasm. Onlayn bilet olish oynasi

Markaz tarkibidagi kutubxona va arxiv, qo'lyozmalar fondlarini bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, mutafakkirlar, aziz-avliyolar, ular tomonidan asos solingan ilmiy, diniy maktablarga doir yurtimizda hamda chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalillar, hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori atiqalar, shu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari, kitob va to'plamlar, video va foto hujjatlar hisobidan shakllantiriladi, Markaz xodimlari tomonidan allomalarimiz boy merosini, asarlarini tarjima qilib, raqamlashtirib yoshlarga yetkazish maqsadida platformada elektron kutubxona sahifasi yaratilgan [3].



5-рasm. Kutubxona sahifasining umumiy ko‘rinishi

Elektron kutubxonada elektron kitoblarning masofadan turib o‘qish va sotib olish imkoniyati mavjud bo‘lib CLIK, PAYME, UZCARD, VIZA, HUMO kabi to‘lov tizimlari bilan integrallashtirilgan. Uning umumiy ko‘rinishi quyidagi rasmda keltirilgan.



6-рasm. Tizimda elektron kitoblarning masofadan turib o‘qish va sotib olish

Islom sivilizatsiya markazini zamonaviy integrallashgan portalini yaratishda dasturiy kompleksini ishlab chiqish jarayonida Html, CCS, bootstrap, JS, Php, Yii2 dasturlash tillarida Backend, Frontend va ma’lumotlar bazasi PostgreSQL dasturlash tillaridan foydalanildi.


Umuman olganda nafaqat veb-saytlar integrallashgan platformalarda, balki, istalgan axborot xavfsizligi sohasidagi obyektni himoyalash mukammal konseptual bosqichli yonashuvni ta’lab etadi. Platformalar turiga qarab xavfsizlik

choralarini qo‘llash jihatlari turlicha bo‘lishi mumkin, ammo umumiy hisobda har qanday platformalar xavfsizligi uchun biz quyidagi jarayonlarga alohida e’tibor bilan yondashishimiz zarur.

Xavfsiz domen ekotizimi – biz bilgan internet bevosita DNS (Domain Name System) ga bog‘liqdir. Bu huddi internetning telefon kitobiga o‘xshaydi, domen nomlari IP manzilga tarjima qilinadi, shuning uchun platformalar foydalanuvchisi platformalarni izlashda raqamlar qatori o‘rniga uning nomini yozgan holda osongina topib olishi mumkin. DNS yagona obyekt emas, balki u protokol, nom maydoni va xizmatini o‘z ichiga oladi. DNS xavfsizligi bu DNS infratuzilmasini tez va ishonchli ishlashini ta’minlash uchun uni kiberhujumlardan himoya qilish amaliyotidir. Samarali DNS xavfsizlik strategiyasi bir-biriga o‘xshash bir qator himoya vositalarini o‘z ichiga oladi. Jumladan, ortiqcha DNS serverlarini o‘rnatish, DNSSEC kabi xavfsizlik protokollarini qo‘llash va qat’iy DNS jurnalini talab qiladi.


Xavfsiz foydalanuvchi hisoblari - foydalanuvchi hisoblaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish tarmog‘ingiz uchun xavfsizlikning eng muhim turi hisoblanadi. To‘g‘ri sozlangan foydalanuvchi hisoblari ruxsatsiz foydalanuvchilarning tarmoqqa jismoniy kirish huquqiga ega bo‘lsa ham, tarmoqqa kirishini oldini oladi.

Islom sivilizatsiyasi markazini zamonaviy integrallashgan portalini yaratishda bevosita foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqa va ular uchun alohida kabinet yaratilgan bo‘lib ularni portalga kirishi uchun registratsiyadan o‘tishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun bosh sahifadan registratsiya (ro‘yhatda o‘tish) tugmasi bosiladi.




7-рasm. Platformada ro‘yhatdan o‘tish oynasi

Ro‘yhatda o‘tish tugmasi bosilganda quyidagicha ko‘rinishda telefon raqami kiritiladi va kiritilgan nomerga sms kodi keladi.



8-рasm. Sms kodi yordamida tizimga kirish

Sms kiritilgandan so'ng foydalanuvchining ismi, familiyasi va ro'yhatdan o'tkanda kiritilgan nomeri va elektron pochta manzili kiritiladi.



9-рasm. Foydalanuvchini ro'yhatdan o'tish jarayoni

Foydalanuvchilar ro'yhatdan o'tishgandan so'ng platformaga kirib platforma kutubxona bo'limidagi kitoblarni o'qish va ularni masofadan sotib olishlari, shuningdek muzey bo'limidan esa masofadan turib virtual sayohat qilishlari va muzeydagi ko'rgazmalarni ko'rish uchun biletlar sotib olishlari mumkin.

XULOSA

Hozirgi kunda har bir tashkilot va korxonalar o'zlarining platformalari orqali foydalanuvchilarga o'zlari haqidagi ma'lumotlarni etkazib berib turadilar. Ushbu platformada ham O'zbekistondagi Islom sivilizatsiya markazi "Uchinchi Renaissance" – Yangi O'zbekiston" g'oyasini keng targ'ib qiluvchi, mamlakat tarihining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganuvchi, uni keng jamoatchilikka yetkazib beruvchi hamda moddiy-madaniy meros namunalari, islom dini bilan bog'liq qadimiy va boy an'analarni targ'ib qiluvchi ilmiy-ma'rifiy maskan bo'lib xizmat qiliadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3080-son Qarori // <https://lex.uz/docs/-3600059>.
2. Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Shoazim Minovarovning "Dunyo" axborot agentligiga bergan intervyusi. 6-may, 2021-yil.
3. Ганиев С.К., Ганиев А.А., Худойкулов З.Т. Киберхавфсизлик асослари: ўқув қўлланма. – Т.: Алоқачи, 2020. – 303 б.